

INNOVATSION O'ZGARISHLAR DAVRIDA SANOAT KORXONALARINING ASOSIY VOSITALARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Musayeva Jamila Karomatovna

Buxoro davlat texnika universiteti katta o'qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0002-0349-6091>

+998906132244

jmk_1973@mail.ru

Annotasiya: Maqolada innovatsion o'zgarishlar davrida sanoat korxonalarining asosiy vositalarini boshqarishning xususiyatlari, shuningdek, korxonalarning asosiy vositalaridan samarali foydalanish asosida daromad hajmini oshirish xususiyatlari keng yoritilgan. Innovatsion rivojlanish sharoitida sanoat korxonalarining asosiy vositalaridan samarali foydalanish natijasida mahsulot ishlab chiqarish va sotishning uzlusiz hamda bir maromda bo'lish jarayonini, mahsulot hajmini oshirish, ishlab chiqarishni kengaytirish va yangilash yo'nalishlari tadbirlar vositasida yoritib berilgan, jumladan korxonada yangi asosiy vositalarni kiritish tahlillari bajarilgan. Maqolada sanoat korxonalarining asosiy vositalarini samarali boshqarishni tashkil etishni yaxshilashning asosiy yo'nalishlari belgilanib ,takliflar va tadbirlar asosida xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion, sanoat, korxona, asosiy vosita, boshqarish, texnologiya, omil, to'qimachilik, tikuvchilik, diversifikatsiya, tahlil, daromad, kapital, xarajat, samaradorlik, taklif, tadbir

Kirish

Innovatsion rivojlanish sharoitida dunyo davlatlarida jadal rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasida rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida shiddatli raqoabat muhiti avj oldi. Bunda sanoat tarmoqlari rivojning o'ziga xos o'rni va ahamiyati bor desak mubolag'a qilmaymiz. Xususan, jahon iqtisodiy rivojlanishida sanoat ishlab

chiqarishi yuqori bo‘lgan davlatlar iqtisodiy taraqqiyotining asosiy omili bo‘lgan sanoat tarmoqlaridagi tuzilmaviy o‘zgarishlar, asosiy ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanish bilan bog‘liqligiga asoslanadi.

Bugungi kunda sanoat tarmoqlarining rivojida asosiy ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanish asosida daromad hajmini oshirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, xususan bu borada “sanoat ishlab chiqarishida asosiy vositalardan samarali foydalanish va uni boshqarishning dasturiy ta’minati jahon bozorida 2020 yilda 3 milliard AQSh dollaridan 2024 yilda 5,2 milliard AQSh dollarigacha o‘sishi prognoz qilinmoqda” [1].

Maqola mavzusining nazariy va uslubiy asoslari.

O’zbekiston Respublikasi Qonunlari, mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan O’zbekiston Respublikasida ijtimoiy yo’nalishdagi innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasiga oid asarlari, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari.

Mazkur maqolada quyidagi usullardan foydalanildi: iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslash, analitik tahlil va boshqalar. Shuningdek maqola yakunida umumlashtirish, mantiqiy va qiyosiy tahlil kabi usullar qo’llanilgan

Mavzuning o’rganilganlik darajasi.

Asosiy vositalarni boshqarish dasturi texnik xizmat ko‘rsatish jarayonlarini soddalashtirishda, ishlab chiqarishdagi mavjud asosiy vositalarning uzoq muddat foydalanish va samaradorlikni oshirish uchun xizmat qiladi. O’zbekistonda olib borilayotgan islohotlar va tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash hisobidan energetika resurslariga bo‘lgan ehtiyojni to‘liq qondirish, yuqori samaradorlikka erishish, asosiy ishlab chiqarish vositalari energiya sig‘imini kamaytirish va tejamkor texnologiyalarni joriy etish orqali ta’minalash zarurligi belgilangan [2].

Tahlil va natijalar.

Innovatsion rivojlanish sharoitida sanoat korxonalarining asosiy vositalaridan samarali foydalanish natijasida mahsulot ishlab chiqarish va sotishning uzluksiz hamda bir

maromda bo'lish jarayoni, mahsulot hajmini oshirish, ishlab chiqarishni kengaytirish va yangilash kabi tadbirlar vositasida ta'minlanadi. Bugungi kunda korxonalarning asosiy vositalardan samarali foydalanish, ishlab chiqatish quvvatini oshirish yo'llarini aniqlash, raqobatbardosh iqtisodiyotning eng muhim iqtisodiy muammolaridan biridir [3].

Bu borada biz taklif kiritmoqchi bo'lgan Buxoro shahridagi "Bahor chance textile MChJ"da mahsulot assortimentini gorizontal diversifikatsiya asosida kengaytirish maqsadida asosiy vositalarni to'g'ri tanlab bilish va joriy etish muhim masalalardan biri sanaladi [4]. Umuman yengil sanoatning to'qimachilik va tikuvchilik sohasida kerakli uaskunalar: to'qish dastgohlari tikuv mashinasi, overlok, matoni bichish uchun mashina, maishiy dazmol, bug' generatori, bichish uchun qaychi, tugma solish apparati, stollar va stellajlar, manekenlar boshqa xarajatlar – ip, tikuvchilik qaychilari, bo'r va boshqalar zarur asosiy vositalar sanaladi [5].

Bugungi kunga kelib tahlil qilingan korxonada ip gazlama bilan birga tayyor tikuvchilik mahsulotlari, paypoq va kolgotkilar ishlab chiqarilmoqda. Talabdan kelib chiqib [6], trikotaj ayollar yubkasi va yangi seriyada rangli paypoq va kolgotkilar tikadigan 1- uckuna - Kompyuterlashtirilgan paypoq to'qish mashinasi YH-6FMP (Yangi miniatyura dizaynli va "aqli to'piq" ish rejimida paypoq to'qish mashinasi) hamda 2- uckuna - JK-A4 F markali, yuqori tezlikli tikuv mashinasi (yuqori tezlikli tekis tikuvli kompyuterlashtirilgan jumlari yangi dizayndagi tikuv mashinasi to'liq avtomatik), yassi platforma, pastki konveyer va o'rnatilgan servomotorli bitta ignali tikish mashinasini kiritishni taklif qilmoqchiniz.

Yuqori tezlikdagi protsessor va katta xotira hajmiga ega bo'lgan YH-6FMP paypoq to'qish mashinasi yuzlab turli turdag'i trikotaj mahsulotlarining zanjiri, gul shakli, zichligi, qayta ishlanishi, o'lchami va tezligi haqidagi ma'lumotlarni saqlashi va istalgan vaqtda almashtirilishi va to'qilishi mumkin [8].


Mashina turli xil uslubdagi trikotaj kiyimlarini to'qish uchun mos keladigan alohida igna mandalli boshqaruvni, avtomatik oldinga va orqaga burchakni sozlashni ishlatadi, paypoqlarning foydalanish muddati va sifati sezilarli darajada yaxshilandi [9].

Kompyuterlashtirilgan paypoq to'qish mashinasi YH-6FMP (Yangi miniatyura dizaynli va "aqli to'piq" ish rejimida paypoq to'qish mashinasi)ning tavsiflari.

1- jadval

<i>Model</i>	<i>YH-6FM(P) 3.5</i>	<i>YH-6FM(P) 3.75</i>
Silindr diametri	3.5 santimetр	3.75 santimetр
Funktsiya	<i>Yigirish/ To'qish</i>	
Ignalraqami	64N – 200N	72N – 220N
Ish tezligi (ayl/m)	<i>To'g'ridan-to'g'ri</i>	
	350	330
	<i>Terri</i>	
	300	310
Quvvat (KVt)	<i>Servomotor</i>	
Voltaj (V)	<i>O'rnatilgan 1.1, haqiqiy foydalanish 0.4</i>	
	<i>Shlangi ventilyator (qoshimcha)</i>	
	0	1.1
	<i>Nazoratchi</i>	
	0	0,5 haqiqiy 0,1 foydalanish
Sof vazn Brutto vazni (kg)	<i>uch faz 220/380 – 50HZ/60HZ</i>	

Hajmi (sm)	250	305
Model	150x120x220	98x79x160



1-rasm. To'liq kompyuterlashtirilgan avtomatik 6(4) rangli dumaloq trikotaj mashinasi

2- uckuna -JK-A4 F yuqori tezlikli tikuv mashinasi

Afzalliklari: 9 ta o'rnatilgan dizayn, choklarni dasturlash va ularni mashina xotirasida saqlash imkoniyati, tikuv dasturlash aniqligi 0,1 mm gacha.

Avtomatik funksiyalar: ipni kesish, igna joylashtiruvchi, bartak, bosuvchi oyoqni ko'tarish, o'rnatilgan servomotor boshqaruvi bloki va bosim oyoqlarini ko'taruvchi elektromagnit, kam elektr iste'moli, yuqori ishlash, trikotaj matoli mahsulot tikilishida tikish choklarining yuqori sifati.

Mashina quyidagi xususiyatlarga ega: tikuv uzunligi 5 mm gacha, bosim oyog'ini ko'tarish 5-13 mm, maksimal tikuv tezligi 5000 sm.



2- rasm. JK-A4 F yuqori tezlikli tikuv mashinasi

Ushbu sanoat tikuv mashinasida avtomatik moylash tizimi mavjud. Turli gazlama va matolardan tikuvchilik mahsulotlari [10]. tikish uchun mo'ljallangan. uskunani o'rnatish muhim. Mazkur uskunaning joriy etilishi natijasida mahsulot ishlab chiqarish hajmi va sifati oshadi [11]. Bu yangi assortimetdagi eksport hamda ichki bozorimiz uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish va uning hajmini oshirish imkonini ham beradi [12].

1-va 2-uchkunada Tovar mahsulot hajmini aniqlash

2-jadval

Mahsulot turi	Ulgurji narxi, ming so'm	Tadbirgacha		Tadbirdan keyin		Farqi
		hajmi	mln. so'm	hajmi	mln. so'm	
Trikotaj ayollar yubkasi	150	0	0	1060	159	159
Rangli paypoq va kalgotki	35	0	0	2120	74,2	74,2
Jami			0	3180	233,2	233,2

2.3. Joriy xarajatlarni hisoblab chiqamiz: [13].

2.3.1. Uskunalarni o'rnatish bilan bog'liq amortizatsiya ajratmalarini [14]. hisoblaymiz:

$$Aa = AF * An / 100 = 79,248 * 15/100 = 11,8872 \text{ million so'm}$$

AF - joriy qilingan asosiy vositalarning qiymati;

An - amortizatsiya darajasi.

2.3.2. Elektr energiyasining qo'shimcha narxini hisoblaymiz. 1 kVt elektr energiyasi 1900 so'm. Uskunaning quvvati 10 kVt / soat

$$X e/e = Ty * Tk * Te/e * ME / 1000 * 1000 = 300 * 8 * 1900 * 10 / 1000 * 1000 = \\ 45,6 \text{ million so'm}$$

Bu yerda: Tg - bir yilda ish kunlari;

Td - ish vaqt;

Te - 1 kVt elektr energiyasining narxi;

Me - o'rnatilgan uskunaning quvvati.

2.3.3. Yangi uskunani o'rnatish [15] har bir smenada bitta ishchini qabul qilishni talab qiladi.

Korxona ishini 1 smenada qabul qiladigan bo'lsak, u holda bitta ishchini qabul qilish kerak, 2024 yilda 1 nafar ishchining o'rtacha ish haqi yiliga o'rtacha 31788,34 ming so'mni tashkil etdi.

$$Ri.x = 31788,34 * 1 / 1000 = 31,78834 \text{ mln.so'm}$$

2.3.4. Yagona ijtimoiy to'lov uchun qo'shimcha xarajatlarni hisoblash [16]. Yagona ijtimoiy to'lov [17] miqdori ish haqining 12-25% gacha:

$$R.c = 31,78834 * 12 / 100 = 3,8146008 \text{ mln.so'm}$$

Umumiy operatsion xarajatlarni hisoblash [17]:

$$Tx = 11,8872 + 45,6 + 31,78834 + 3,8146008 = 93,0901408 \text{ mln. so'm}$$

Qo'shimcha daromadni hisoblash

$$F.q = 233,2 - 93,0901408 = 140,109859 \text{ mln. so'm}$$

3. Kapital xarajatlarning iqtisodiy samaradorligini hisoblash [18]:

$$Q_m = K / F_k = 79,248 / 140,109859 = 0,57 \text{ yil}$$

Bu shuni anglatadiki, korxona kapital [19] xarajatlarini foyda bilan 0,57 yil ya'ni 6,84 oyda ichida to'laydi.

Barcha natijalarni quyidagi jadvalda keltiramiz

Buxoro shahridagi "Bahor chance textileMChJ" ning tadbirdan oldidan va undan keyingi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari

3- jadval

<i>Nº</i>	<i>Ko'rsatkichlar nomi</i>	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2024 yil</i>	<i>Tadbirdan keyin</i>	<i>Farqi +, -</i>

1.	Tobap mahsulot Solishtirma baholarda	ming so'm	269339590,7	269339823,9	233,2
	Harakatdagi baholarda	ming so'm	253179215,3	253179448,5	233,2
2.	Mahsulot ishlab chiqarish natural ifodada	dona			
	Ip kalava	kg	168786		
	Trikotaj mato	m ²	2953757		
	Tayyor mahsulot (paypoq va kalgotki)	dona	3014038		
	Trikotaj ayollar yubkasi	dona		2120	2120
	Rangli paypoq va kalgotki	dona		1060	1060
3.	Sanoat ishlab chiqarish xodimlarining o‘rtacha ro’yxatdagi soni	kishi	350	350	
	Jumladan, ishchilar	kishi	262	272	10
4.	Mahsulot sotishdan sof tushum	ming so'm	215202333	215202538,22	205,216
5	Sanoat ishlab chiqarish xodimlarining ish	ming so'm	11125922,26	11125954,05	31,78834

	haqivositai				
6	Mehnat unumdorligi	ming so'm	769541,68	990219,94	220678,261
7	O'rtacha yillik ish haqi	ming so'm	31788,34	31820,12834	31,78834
8	Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari	ming so'm	192017601	192 017 694,090	93,0901408
9	1 so'mlik tovar mahsulotining xarajatlar	tiyin	75,80	75,84	0,04
10	Balans foydasi	ming so'm	552072	552212,11	140,110
11	Ishlab chiqarish vositalarining o'rtacha yillik qiymati	ming so'm	63990172,9	63990252,148	79,248
12	Kapital quyilmalar	mln so'm		79,248	
13	Qoplash muddati	yil		0,57	

Ushbu uskunani kiritish natijasida tobap mahsulot [20] harakatdagi baholarda 233,2 ming.so'mga oshadi, yangi assortimentdagi trikotaj ayollar yubkasi ishlab chiqariladi va qo'shimcha 1060 dona rangli paypoq va kalgotki iashlab chiqariladi. Bunda korxonada yana qo'shimcha 10 ta ishchi ish bilan band bo'ladi [21].

Kapital quyilmalar 79,248 mln. so'mni tashkil etib, bu shuni anglatadiki, korxona kapital xarajatlarini foyda tufayli 0,57 yil ya'ni 6,84 oyda ichida to'laydi.

Innovatsion rivojlanish sharoitida asosiy vositalardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish korxonaning moliyaviy natijalarida [22]: ishlab chiqarish hajmini

oshirish, tannarxni pasaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash, mol-mulk solig'ini kamaytirish va balans foydasini oshirish orqali namoyon bo'ladi [23].

Korxonada asosiy vositalarning iqtisodiy samaradorligini oshirishga quyidagilar orqali oshirish mumkin [24]:

- korxonaning ishlatilmayotgan asbob-uskunalari, tikuv mashinalari, dazmol va boshqa asosiy vositalarni hisobdan chiqarish yoki ularni ijaraga berish;
- rejalashtirilgan va joriy ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida va sifatli o'tkazish;
- zamonaviy, yuqori quvvatli va dasturlashtirilgan asosiy vositalarni sotib olish va o'rnatish;
- ishchi xodimlarning malakasini oshirish, ustoz- shogird usullarini qo'llash [25];
- haddan tashqari ma'naviy va jismoniy eskirishning oldini olish maqsadida asosiy vositalarni, ayniqsa, faol qismini o'z vaqtida yangilash [26];
- iqtisodiy maqsadga muvofiq bo'lsa korxonaning smenalilik koeffitsientini oshirish [27];
- ishlab chiqarish jarayoni uchun xom ashyo va materiallarni tayyorlash sifatini oshirish va o'z vaqtida ta'minlash [28];
- ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasini oshirish [29];
- iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lgan hollarda ta'mirlash xizmatlarini markazlashtirishni, ya'ni servisni ta'minlash [30];
- yangi texnika va progressiv texnologiyani joriy etish - chiqindisiz, energiya tejamkor [31];
- mashina va asbob-uskunalarni ishlatishda ish vaqtida to'xtovlar sonini kamaytirish maqsadida ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishni zamonaviy shakllarini qo'llash [32].

Asosiy vositalardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish chora-tadbirlari quyidagilar [33]:

- asosiy ishlab chiqarish vositalarini yangilash;
- uskunaning ishlamay qolishini bartaraf etish;
- foydalanimayotgan uskunalarini kamaytirish.

1. Asosiy ishlab chiqarish vositalarini yangilash:

Asosiy vositalar ob'ektini eng zamonaviy rusmdagi modellarni tezroq joriy etish (modernizatsiya qilish), birinchidan, ob'ektning dastlabki qiymatining oshishiga, ikkinchidan, foydalanish muddatining oshishiga olib kelishi mumkin. Bu, o'z navbatida, asosiy vositalarning ushbu ob'yekti uchun yillik amortizatsiya miqdorini qayta hisoblash zaruriyatini keltirib chiqaradi [34].

2. Uskunaning ishlamay qolishini bartaraf etish:

Har bir asosiy vosita ob'ektining foydalanish muddati ko'rib chiqish maqsadga muvofiq [35].

3. Foydalanimayotgan uskunalarni kamaytirish

Foydalanimayotgan asosiy vositalarni sotish yoki ijaraga berish [36].

Xulosa

Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari sifatida quyidagilarni taklif etamiz:

➤ Asosiy vositalardan foydalanishning texnik va tashkiliy darajasining oshishini tahlil qilganda shuni ta'kidlash kerakki, uni takomillashtirish ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni hamda ishlab chiqarish va mahsulotlarning ilmiy-texnik darajasini, tuzilmasini qamrab oluvchi murakkab uzlusiz optimallashtirish jarayonidir, iqtisodiy tizim, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish darajasi, iqtisodiy mexanizm, boshqaruvni tashkil etish darajasi va boshqaruv usullaridan foydalanish.

➤ Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun zahiralarni aniqlash.

➤ Asosiy ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishning eng muhim ko'rsatkichlari kapital unumdorligi va kapital sig'imidir. Moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida asosiy ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish samaradorligini kapital unumdorligi dinamikasi (kapital zichligi), asosiy ishlab chiqarish vositalarining nisbiy tejalishi kabi ko'rsatkichlar bilan baholash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida
2. Ўзбекистон Республикасининг 2023 — 2025 йилларга мўлжалланган Инвестиция дастурини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 2022 йил 28 декабрь, ПҚ-459-сон
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 13.03.2024 yildagi 128-son “O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2024-2025-yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida
4. J.K. Musayeva. Innovatsion menejment. Darslik. -Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy, Durdona nashriyoti- 2025. - 280 b.
5. Musayeva J.K. Tavakkalchilikni boshqarish. Darslik. Buxoro 2024 “IPAKYO’LI” nashriyoti
6. Musayeva J.K. Buxgalteriya hisobi nazariyasi: O’quv qo’llanma. — B.: Durdona nashriyoti. 2021.
7. Xayitov Sh.N., Musayeva J.K. Buxgalteriya hisobi: O’quv qo’llanma.. — B.: Durdona nashriyoti. 2021.
8. Xayitov Sh.N., Artikova D.M. Musayeva J.K. Innovatsion menejment. O’quv qo’llanma. “Tafakkur bo’stoni.” nashriyoti, Toshkent 2020
9. Karomatovna M. J. IQTISODIYOT TARMOQ VA SOHALARIDA AKTIVLARNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY YONDASHULARI //TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G ‘OYALAR. – 2025. – T. 1. – №. 8. – C. 282-286.
10. Karomatovna M. J. ISSUES OF MANAGEMENT OF FIXED ASSETS OF ENTERPRISES IN THE CONTEXT OF ECONOMIC INTEGRATION //GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY. – C. 104.

- 11.**Мусаева Ж. Совершенствование эффективного управления основными активами предприятий в условиях инновационного развития //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2025. – Т. 3. – №. 2.
- 12.**Karomatovna M. J. KORXONALARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY TASHKILIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH //JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH. – 2025. – Т. 2. – №. 3. – С. 163-178
- 13.**Karomatovna M. J. THE NEED FOR MANAGEMENT OF RENEWAL OF FIXED ASSETS IN INDUSTRIAL ENTERPRISES OF UZBEKISTAN //GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY. – С. 145.
- 14.**Musaeva J. KORXONALARDA ASOSIY AKTIVLARNI BOSHQARISH //QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2024. – Т. 11. – С. 120-124.
- 15.**Karomatovna M. J., Akram o’g’li A. A. ZAMONAVIY SHAROITLARDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TAYM MENEJMENTNING O’RNI //XALQARO KONFERENSIYA VA JURNALLARNI SIFATLI INDEXLASH XIZMATI. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 240-245.
- 16.**Низамов А. Б., Мусаева Ж. К., Мадримов М. О. НАПРАВЛЕНИЯ ЦИФРОВИЗАЦИИ И ИНВЕСТИРОВАНИЯ В ОСНОВНОЙ КАПИТАЛ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ СТРАТЕГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ //XALQARO KONFERENSIYA VA JURNALLARNI SIFATLI INDEXLASH XIZMATI. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 336-340.
- 17.**Karomatovna M. J. YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONA AKTIVLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI //XALQARO KONFERENSIYA VA JURNALLARNI SIFATLI INDEXLASH XIZMATI. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 466-469.
- 18.**Karomatovna M. J. Improving Mechanisms for Managing Fixed Assets at Enterprises //Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521). – 2024. – Т. 2. – №. 4. – С. 206-217.

19. Karomatovna M. J. WAYS TO INCREASE THE INVESTMENT POTENTIAL OF THE REGION IN MODERN CONDITIONS //Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595). – 2023. – T. 3. – №. 2. View of WAYS TO INCREASE THE INVESTMENT POTENTIAL OF THE REGION IN MODERN CONDITIONS (sciencesage.info)
20. Musayeva J. K. O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA AKTIVLARNI BOSHQARISHNING O 'RNI VA ROLI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – T. 3. – №. 4. – C. 554-564.
21. Karomatovna M. J. IMPACT OF ENTERPRISE ASSET MANAGEMENT ON THE PROCESSES OF GLOBALIZATION IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN //British View. – 2023. – T. 8. – №. 5. View of IMPACT OF ENTERPRISE ASSET MANAGEMENT ON THE PROCESSES OF GLOBALIZATION IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN | British View
22. Musaeva J. K., Khalilova M. A. FEATURES OF INVESTMENT PROCESSES OF THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN IN THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION //Academia Science Repository. – 2023. – T. 4. – №. 04. – C. 618-628.
- <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/3763/3615>
- DOI: <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/BGTE7>
23. Musayeva J.K. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlanirishda korxona aktivlarini boshqarish, globallashtirish va integratsiya jarayonlarining ta'siri. СОЛИҚ ВА ҲАЁТ ЭЛЕКТРОН ИЛМИЙ ОММАБОП ЖУРНАЛ, II СОН. 2023, 13-19-bet
24. Mukhsinov B., Yuldasheva S. Jamila Musaeva International journal of advanced science and technology vol. 29, no. 5, (2020) //issn. – 2005. – T. 4238. – C. 1922-1926.
25. Musaeva J.K. Evaluation of the fixed capital of enterprises and the main ways of their effective use. "ЛОГИСТИКА ВА ИҚТИСОДИЁТ" илмий электрон журнали. 2022 йил 2 СОН. 70-77 bet

- 26.Мусаева Ж. К., Халилова М. А. Қ. КОРХОНАЛАРНИНГ АСОСИЙ КАПИТАЛИНИ БАҲОЛАШ ВА УЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 200-217.
- 27.Мусаева Ж. К. ОЦЕНКА ОСНОВНОГО КАПИТАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ И ОСНОВНЫЕ ПУТИ ИХ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ //Журнал Инновации в Экономике. – 2022. – Т. 5. – №. 3.
- 28.Мусаева Ж. К. САНОАТ КОРХОНАЛАРИДА АСОСИЙ КАПИТАЛДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ ЙЎЛЛАРИ //Журнал Инновации в Экономике. – 2021. – Т. 4. – №. 6.
- 29.Karomatovna M. J. MAIN DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF LIGHT INDUSTRY ENTERPRISES IN UZBEKISTAN IN THE CONDITIONS OF ECONOMIC GLOBALIZATION //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 9. – №. 12. – С. 1434-1441.
- 30.Мусаева Ж. К. ГЛАВА 9. ОСОБЕННОСТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ //Наука, инновации, общество в условиях цифровой экономики. – 2021. – С. 101-111.
- 31.Мусаева Ж. К., Жумаева Д. Х. Особенности анализа основных фондов и инвестиций на предприятиях //Бенефициар. – 2019. – №. 52. – С. 7-10.
- 32.Musaeva J. K., Elmurodov S. S., Yuldasheva S. N. ROLE OF CURRENCY RELATIONS IN THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN //Бенефициар. – 2019. – №. 44. – С. 22-25
- 33.Мусаева Ж. К. РОЛЬ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА //Интернаука. – 2019. – №. 9-1. – С. 76-78.
- 34.Мусаева Ж. К. ОСОБЕННОСТИ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ //СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-

ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ. – 2019. – С. 279-284.

35.Мусаева Ж. К. ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СТИМУЛИРОВАНИЕ КАЧЕСТВА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ РЕАЛЬНОГО СЕКТОРА ЭКОНОМИКИ //Интернаука. – 2018. – №. 22-1. – С. 63-65.

36.Мусаева Ж. К., Халилова М. А. ИННОВАЦИОННЫЕ СТРАТЕГИИ В УПРАВЛЕНИИ ПРОЕКТАМИ //Актуальные проблемы современной науки. – 2014. – №. 3. – С. 27-29.